

MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Nosirov Bunyodjon G'offorali o'g'li

Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

bunyodnosirov1995yilman@mail.ru

Zamonaviy ta'lim tendensiyalari asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, zamonaviy pedagogning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda kompetensiyaga asoslangan ta'limga asosiy omil sifatida qaralmoqda. Bunda avvalo kompetensiya nima, u o'z ichiga nimalarni qamrab oladi kabi savollarga javob topish maqsadga muvofiqdir. Kompetensiyaga ko'plab olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan bo'lsada, hozirda umumlashgan holda Vazirlar Mahkamasining 466-sonli qaroriga binoan "Kompetensiya - bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui"¹¹ sifatida izohlangan.

Kompetensiyalar turli guruhlarga bo'lingan bo'lib, har qanday faoliyat jarayoni samaradorligini oshiruvchi kompetensiyalar kasbiy kompetensiya, kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmuidir. Shuningdek kasbiy kompetensiya faoliyatni yuksak mahorat bilan bajarish usullarini o'z ichiga oladi. Amerikalik olimlar tadqiqotlarida kasbiy kompetensiyalarni kasbiy muammolarni hal etishda bir vaqtning o'zida avtonomlik va egiluvchanlikda ishlash, shaxslararo muhitga moslashgan bilim, ko'nikma va malakalar uy'gunlashganini tushunadi.[2]

Shundan kelib chiqqan holda kasbiy kompetensiya bu ish joyining talablariga muvofiq kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beradigan qobiliyatlardan samarali foydalanish deb xulosa qilish mumkin. Shu ma'noda kasbiy kompetensiya "bilim, ko'nikma va malaka" uchligi doirasidan tashqariga chiqadi va formal bo'lmagan bilimlarni hamda xulq - atvor, dalillar tahlili, qaror qabul qilish, axborot bilan ishlash kabilarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy ish muhitida insonga mehnat faoliyatini bajarish imkonini beradigan bilim, qobiliyat va munosabatlarni birlashtirish ham kasbiy kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi.[4]

¹¹ <https://lex.uz/docs/-4945840>

Rossiyalik tadqiqotchilar kasbiy kompetensiyani shaxsning o'z shaxsiy harakatlarini standartlar va meyoriy tartibga soluvchi hujjatlarda belgilangan zaruriy sifatlar bilan bajarishini anglatuvchi uning tavsifnomasi sifatida qaragan. Kasbiy kompetensiya shaxsning faoliyatga umumiy tayyorgarligi va qobiliyatligi, shuningdek, bilimlar va vaziyatlar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash, o'quv tarbiya jarayoniga shaxsning mustaqil ishtirokini ta'minlash, boshqa tomondan, jamiyatning ma'lum bir sifatidagi inson resurslariga bo'lgan talablarini qondirishga xizmat qiladi. Kasbiy kompetensiya faoliyatning har bir sohasi uchun nima zarurligini ko'rsatadi, insonning o'zini o'zi belgilashini, ijtimoiy daxldorligini, fuqarolik pozitsiyasini va kasbiy darajada raqobatlashish qobiliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Kasbiy kompetensiya bu barcha kasbiy sohalar uchun umumiy bo'lgan insonning boshqalar bilan o'zaro ta'sirlashuvi, hamkorlik qilishi va axborot bilan ishlash ko'nikmalari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etishning faol usullarini o'zida ifodalovchi ta'lim natijasi. Mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi shaxsning murakkab tuzilmasi bo'lib, uning faoliyatini aniqlab beradi va umummadaniy, kasbiy bilimlar, mahorat, ko'nikmalar, kasbiy ijodiy yondashuv, shaxsning ijtimoiy yo'naltirilganligi, umuman, kasbiy vazifalar samarasi yechim topishni ta'minlovchi majmuadir. Mazmun-mohiyatiga ko'ra, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi funksional (turli fan sohalarini tashkil etish prinsiplari haqidagi bilimlar) harakat haqidagi amaliy bilimlar (metodik va texnologik) hamda shaxsning o'z bilimlaridan iborat. Bularning natijasida mutaxassisning kasbiy, kommunikativlik mahorati va ko'nikmalari shakllanadi, loyihalash, tajribaviy va texnologik vazifalarni ijobiy yechish imkoniyatlari paydo bo'ladi.[3]

Hozirgi kunda Yevropa hamjamiyati tomonidan kasbiy ta'limda alohida e'tibor quyidagi tayanch kompetensiyalarga qaratilgan:

➤ ijtimoiy kompetensiya - o'z zimmasiga mos mas'uliyatni olish qobiliyati, birgalikda qaror qabul qilish va uni amalga oshirishda ishtirok etish, shaxsiy manfaatlarning korxona va jamiyat manfaatlari bilan uyg'unligi;

➤ kommunikativ kompetensiya - turli tillarda og‘zaki va yozma muloqot qilish texnologiyasini egallash, kompyuterli dasturlash tillari va Internet tizimidan foydalanish malakasi;

➤ ijtimoiy-axborot kompetensiyasi - axborotli resurslarni va axborot texnologiyalarini egallash, olingan axborotga nisbatan tanqidiy munosabat;

➤ maxsus kompetensiya - kasbiy vaziyatlarni mustaqil, ijodiy bajarishga tayyorlanganlik, o‘zini va o‘z mehnati natijalarini baholay olish;

➤ kognitiv kompetensiya - o‘z ta’lim darajasini doimiy ravishda oshirishga tayyorlik, shaxsiy ehtiyojini faollashtirishga ehtiyoj, yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil o‘zlashtirish qobiliyati, o‘zini o‘zi rivojlantirishga intilish, o‘z kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda boyitib borish.[5]

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash mumkinki, kasbiy kompetensiyalar - insonning jamiyatdagi hayotiy faoliyatidagi dolzarb va istiqbolli ahamiyatga ega bo‘lgan turli sohalariga tegishli bo‘lgan masalalar, bilimlar, amaliy ma’lumotlar va faoliyat usullaridan iborat jarayon bo‘lib, ularni o‘zlashtirish bir tomondan insonning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli faoliyatini boshqa tomondan kasbiy yuksalishini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Yangi tushunchalar pedagoglarni doimiy o‘z ustida ishlash, zamonaviy texnologiyalar, vositalar bilan tanishtirib borishni, bir so‘z bilan aytganda muntazam malakasini oshirishni talab etmoqda. Pedagoglar malakasini oshirishning maqsad, vazifalari Vazirlar Mahkamasining 106-sonli qarorida batafsil yoritilgan bo‘lib, unga binoan “Malaka oshirish — boshqaruv hamda pedagog kadrlar tomonidan ta’lim darajasi va sifatiga qo‘yiladigan davlat ta’lim talablariga muvofiq yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil o‘zlashtirish, o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish shakli”¹² dir.[1] Bugungi kunda professional ta’lim pedagog kadrlari malakasini oshirish va kasbiy rivojlantirishning bevosita ya’ni an’anaviy ta’lim muassasalariga borib o‘qish, ta’lim platformalari orqali yoki masofaviy ta’lim, hamda turli seminar,

¹² <https://lex.uz/docs/5309472>

treninglar o'tkazish, uslubiy qo'llanmalar chop etish, xorijiy saytlarida malakasini oshirish – mustaqil malaka oshirish turlari yo'lga qo'yilgan.[5]

Masofaviy malaka oshirish shakli eng zamonaviy va qulay malaka oshirish shakli bo'lib, tayyorlangan platforma orqali yuklangan ta'lim manbalaridan foydalangan holda kompetensiyalar takomillashtiriladi. Hozirda ta'lim platformasida quyidagi manbalar mavjud:

- berilgan mavzuga oid ma'ruzalar matni;
- mavzuga oid tayyorlangan taqdimot;
- mavzuga oid tayyorlangan video qo'llanma;
- o'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida bajariladigan test topshiriqlari;[6]

Ma'ruzalar matni asosan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va kasbiy kompetensiyalarni yanada takomillashtirishga asoslangan nazariy ma'lumotlarni o'zida jamlab, odatda foydalanuvchilarga qulay hamda qisqacha mazmunni o'zida aks ettirishi lozim.

Mavzuga oid tayyorlangan taqdimot maruzalar matnidan, turli diagramma va jadvallardan shuningdek turli rasm, ko'rgazmalardan tuzilgan bo'lib, ma'ruzaning qisqacha mazmunini o'zida jamlashi zarur.

Video qo'llanma ma'ruza va taqdimotlardagi ma'lumotlar asosida tayyorlanib, nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llash, hamda ayrim tushunchalarni yanada kengroq izohlash maqsadida tayyorlanadi va yuklanadi.

Berilgan nazariy ma'lumotlar, taqdimotlar va video yo'riqnomani ko'rgandan so'ng o'zlashtirish ko'rsatkichini baholash uchun test topshiriqlari bajariladi.

Shu ketma-ketlikda bajarilgan amallar ajratilgan kreditlarni to'la o'zlashtirish, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Belgilangan kreditlarni to'plagan foydalanuvchiga to'gridan-to'g'ri malaka oshirishni yakunlaganlik to'g'risida sertifikat taqdim etiladi. So'nggi yillarda maktabgacha va maktab ta'limi hodimlari, professional ta'lim hamda oliy ta'lim pedagog kadrlari malakasini oshirish platformasiga yana yangi qo'shimchalar kiritish va kompetentlikni yanada takomillashtirish chora tadbirlari ko'rilmogda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-sonli qarori.
2. Nosirov.B.G‘., “Masofaviy ta’lim sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini takomillashtirishning o‘rni va ahamiyati”. ”Pedagogika” ilmiy nazariy metodologik jurnal / 2023-yil 4-son; 85-88 betlar.
3. Nosirov.B.G‘., “Masofaviy ta’lim sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini takomillashtirish tuzilmasi” – “Innovations in technology and science education” jurnali 2-son, 2023-yil. 146-152-betlar.
4. Parpiev.A., Maraximov.A., Hamdamov.R., Begimkulov.U., Bekmuradov.M., Tayloqov.N., Elektron universitet. Masofaviy ta’lim texnologiyalari O‘zMU davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2008, 196 b.
5. T.T.Shoymardonov., “Pedagog kadrlar malakasini oshirish va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi”, PhD dissertatsiyasi, Toshkent 2017 yil, 37-44-betlar.
6. <https://my.moqt.uz/>

PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Nodira Yunusova Anvar qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

Annotatsiya. Ta’limning imkoniyatlarining kengayganligini sohada zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida masofali va mobil ta’lim turlari qo‘llanilayotganligi bilan izohlash mumkin. Ushbu maqolada mobil ta’limning imkoniyatlari, o‘quv jarayonida qo‘llanilishi, mobil ta’limni joriy etish muammolari masalalari haqida fikr yuritiladi.